TOHIR MALIK IJODIDA TEOLOGIK TUSHUNCHALAR IFODASI

Rahmatova Sevara Murotovna
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi
sevararahmatova1993@gmail.com 972181855

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining zabardast vakili Tohir Malik ijodidagi teologik tushunchalarning badiiy va hayot falsafasi sifatida talqini, ularning inson ruhiyati, iymon va vijdon bilan bog‘liq mazmuni, ruhiy poklanish va adolat g‘oyalari tahlil qilinadi. Yozuvchi asarlarida e’tiqod, sabr, tavba, taqdir kabi diniy va falsafiy tushunchalarning xalqona va zamonaviy talqini o‘zaro uyg‘unlikda yoritilgan bo‘lib, xalq tiliga yaqin, kitobxonning qalbidan joy oladigan sodda va ravon tilda yozilganligi haqida so‘z yuritilgan. Tohir Malik maqola adibning asarlaridagi til, uslub va ma’naviy qatlamlarni ochib berishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Tohir Malik, teologik tushunchalar, iymon, tavba, taqdir, vijdon, badiiy tahlil, ma’naviyat.

Adabiyot har doim inson ruhiyatining oynasi bo‘lib kelgan. Shu bois o‘zbek adabiyotida teologik qarashlar, ya’ni diniy va axloqiy g‘oyalar yozuvchi dunyoqarashining ajralmas qismidir. O‘zbek adabiyotida insonning ma’naviy olamini, e’tiqodini va iymon sinovlarini chuqur tasvirlagan ijodkorlardan biri - Tohir Malikdir. Uning asarlari nafaqat adabiy hodisa, balki ma’naviy ogohlik maktabidir. Adib o‘z qahramonlari orqali hayotning

murakkab, ba’zan ziddiyatli manzaralarini chizadi. Shu jarayonda u “taqdir”, “tavba”, “gunoh”, “sabr”, “vijdon” kabi teologik tushunchalarni tilning badiiy imkoniyatlari orqali chuqur ifoda etadi. Tohir Malik ijodi orqali o‘quvchi insonning ichki olami, ruhiy iztiroblari, e’tiqodi bilan yuzlashadi. Bu asarlar diniy nasihat emas, balki hayotiy haqiqat va ruhiy o‘zgarishning badiiy ifodasidir. Tohir Malik uchun e’tiqod va vijdon muvozanati – bu insonning ichki tuyg‘usi, ruhiy harakati, o‘zini anglash yo‘lidir. Yozuvchi uchun teologiya - bu insonning ichki dunyosini tahlil etuvchi ruhiy ko‘zgudir. Teologik tushunchalarning badiiy ko‘rinishi Tohir Malik asarlarida badiiy nutqning asosiy qatlamini tashkil etadi. Quyidagi jihatlar bunga yaqqol misol bo‘ladi:

“Taqdir” – yozuvchi uchun oldindan belgilangan yo‘l emas, balki insonning o‘zi tanlagan yo‘li.

“Tavba” – bu kechirim so‘rash emas, balki o‘z xatosini tan olib, ruhiy o‘zgarish sari tashlangan qadam.

“Sabr” – har bir insonning sinovi, taqdir oldidagi bardoshi.

“Gunoh” – bu yovuzlik emas, balki insonning zaifligi, uni tuzatish uchun berilgan imkon. Bu tushunchalar yozuvchi asarlarida psixologik holat bilan o‘zaro uyg‘unlashgan. Har bir qahramon o‘z “ichki tavbasi” ni boshidan kechiradi. Yozuvchi diniy so‘zlarni ma’naviy-axloqiy g‘oya bilan birlashtirib, ularni o‘zbek tilining ifoda boyligida yangicha talqin etadi. Til va uslubda teologik qatlam Tohir Malikning tili o‘zbek xalqining tafakkuriga yaqin, ammo unda ilohiy ma’nolar tizimi yashiringan. U Qur’on oyatlaridan bevosita iqtibos bermaydi, biroq ularning mazmunini xalqona so‘z bilan ifodalaydi. O‘quvchi uchun Tohir Malik asarlari ma’naviy saboq, diniy targ‘ibot emas, balki ruhiy tahlil maydonidir. Insonni o‘ylashga, o‘zini ko‘rishga, iymon bilan yashashga undaydigan asarlari **“Shaytanat”** to‘rt qismdan iborat bo‘lgan va keyinchalik filmga moslashtirilgan mashhur romani. **“Falak”** ilmiy-fantastik janrdagi qissa. **“So‘nggi o‘q”** qissa va hikoyalardan iborat to‘plam unda gunoh, jazo va kechirim masalalari insoniy dramalar bilan bog‘langan. **“Hikmat afandining o‘limi” y**ozuvchining ilk yirik asari. **“Alvido, bolalik”** boshqa mashhur asarlaridan biri. **“Bir kecha, bir ko‘cha”** yana bir taniqli hikoyasi. **“Imonlashish umidi”** asari bu asar **“Mehmon tuyg‘ular”** kitobining tuzatilgan ikkinchi nashri xisoblanib, odamzotning oxiratdagi o‘rni niyati va ammallariga bogliqligiga qaratilganligi to‘g‘risida yozuvchi til vositasida e’tiqodning badiiy tilini yaratgan. Shu orqali Tohir Malik asarlarida teologik semantika bilan milliy ruh birlashgan. Bu jihat uni nafaqat adabiy, balki ma’naviy hodisaga aylantiradi.

“Shaytanat” asarida yozuvchi insonning gunoh va tavba o‘rtasidagi kurashini nafaqat voqealar orqali, balki til orqali ham ko‘rsatadi. Bunda “shaytanat” dunyosi juda keng bo‘lib, borgan sari bu olamga bilib-bilmay, adashib kirib keluvchilar evaziga kengayaveradi. Maqsad esa bitta – boylik, lekin to‘plangan boylikdan aqalli bir tangani o‘zi bilan u dunyoga olib keta olmasligini anglashmagan. Aynan shu qo‘lning kiri uchun vijdonidan kechib shaytonning yo‘rig‘iga kirgan kimsalar o‘zlariga hasad, xiyonat, zulm kabi illatlarni hamroh qilishgan. Roman qahramoni Asadbek obrazida yozuvchi “vijdon azobi” ni teologik jihatdan ochib beradi. Har bir so‘z, ibora - “Alloh saqlasin”, “Taqdirning ishi”, “Tavba qilish kerak” - bu faqat tildagi birlik emas, ruhiy jarayonning ko‘zgusidir. Tohir Malik tili xalqona, ammo ma’naviy jihatdan yuksak. U diniy tushunchalarni o‘quvchining hayotiy tajribasiga yaqinlashtiradi. Shu bois “Shaytanat” faqat jinoyat haqida emas - gunohning ichki og‘rig‘i, insonning iymon sinovi haqidagi asardir.

Yozuvchi asarlarida **“shayton”** obrazining o‘zi ham ramziy ma’noga ega. Bu – insonning ichidagi **nafs,** yovuzlik, vasvasa timsoli. Bilamizki nafs insonni yomon narsalarga buyuradi. Inson zoti unga quloq soldimi, tamom, nafsining quliga aylanadi. Inson aslida Haqning quli, nafsning quli emas. Asarda “Jalilning “Xudodan qaytibdi” degan gapi ham shunaqa”[2,580] har qanday ishlarimiz hamda ammalarimiz uchun Ollohning ajri borligini doimo unutmasligimiz lozim. Zero,

yozuvchi **“Odamiylik mulki ”**asarida “Kimki o‘zining yaxshi amalidan xursanl bo‘lib, yomon amalidan xafa bolsa, u mo‘mindir.”[4,87] Bunday dunyo haqiqatlarini **“Imonlashish umidi”** asarida ham keng yoritib bergan. “Ozod odam hech bir to‘siqsiz egalik qilishi mumkun bo‘lgan narsaga egadir. Xech bir to‘siqsiz nimaga egalik qilish mumkin? Faqat O‘Z-O‘ZIGA! Agar siz odamning o‘z-o‘ziga egalik qilmay, boshqalarga ham xukum o‘tkazmoqqa jazm etganini ko‘rsangiz, bilingkim, u ozod emasdir. U boshqalarga xokimlik qilishni istadimi, demak, u o‘z istagi - nafsi qulidir.’’[5,3] Shu orqali adib ma’naviy kurashni badiiy shaklda ifoda etadi. Bugungi adabiyotda bunday tahlil zarur. Chunki teologik tushunchalar – bu diniy masala emas, balki eng avvalo insoniy ong va axloqning ildizidir.

Tohir Malik teologik tushunchalarni jamiyat axloqining mustahkamlanishiga xizmat qiluvchi vosita sifatida talqin etadi. Uning asarlaridagi ruhiy iztirob, tavba, sabr va e’tiqod kabi g‘oyalar o‘quvchini o‘z vijdoni bilan suhbatga chorlaydi. Yozuvchi nafaqat diniy mavzuni, balki insoniy mas’uliyatni ham markazga qo‘yadi. Yozuvchi diniy tushunchalarni insoniy tajriba, ruhiy iztirob va ma’naviy tozalik bilan bog‘lab, o‘z ijodini falsafiy darajaga ko‘targan. Shu sababli, Tohir Malik asarlari bugungi kunda ham o‘quvchini iymon, sabr, vijdon va adolat kabi abadiy qadriyatlarga chorlaydi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, Tohir Malik o‘zbek adabiyotiga teologik tafakkurni badiiy nutqqa singdirgan adib sifatida kirgan bo‘lib, teologik tafakkurning yangi bosqichini boshlab bergan. Uning asarlarida din va hayot, ruhiyat va adolat bir butun holda ko‘riladi. Adib asarlarida teologik motivlar nafaqat diniy ma’rifat, balki milliy o‘zlik va axloqiy ongni shakllantirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Shu bois, Tohir Malik ijodini o‘rganish adabiy, falsafiy va ma’naviy jihatdan ham muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov B. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida ruhiy tasvir muammolari. – Toshkent: Fan, 2018.

2. Malik T. Shaytanat. (5-kitob: Azozil do‘koni) –Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat milliy nashriyoti, 2018. – 592 b.

3. Malik T. So‘nggi o‘q. – Toshkent: Adabiyot, 2012.

4. Malik T. Odamiylik mulki. Birinchi kitob: “Vafo guli”/ Ilmiy ma’rifiy risola.. Toshkent: “Sanoat standart”, 2018. – 784 b.